FINANCIAL AND ECONOMIC SUSTAINABILITY

DAVLAT XUSUSIY SHERIKLIK AFZALLIKLARI, OMILLARI TARKIBI, SHAKLLARI VA AMALGA OSHIRISH BOSQICHLARI

Ollokulova F.M.
Termiz davlat universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.20743534

Annotatsiya. *Mazkur maqolada davlat-xususiy sheriklikning iqtisodiy mohiyati, afzalliklari, unga ta'sir etuvchi omillar, asosiy shakllari hamda amalga oshirish bosqichlari tadqiq etilgan. Xalqaro va milliy tajribalar asosida DXShning investitsion faollikni oshirish, infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish va davlat xarajatlari samaradorligini ta'minlashdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, DXSh loyihalarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, monitoring tizimi va raqamli texnologiyalarni joriy etish istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarida O'zbekiston amaliyotida DXShni takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*
Kalit so'zlar: *davlat-xususiy sheriklik, investitsiyalar, infratuzilma loyihalari, risklarni taqsimlash, konsessiya, monitoring, moliyalashtirish, raqamli platforma.*

PUBLIC-PRIVATE PARTNERSHIP: ADVANTAGES, INFLUENCING FACTORS, FORMS, AND STAGES OF IMPLEMENTATION.

Ollokulova F.M.
Termez state university

Annotation: *This article examines the economic essence of public-private partnership (PPP), its advantages, influencing factors, main forms, and implementation stages. Based on international and national experience, the study highlights the role of PPPs in increasing investment activity, financing infrastructure projects, and improving the efficiency of public expenditures. The organizational and economic mechanisms of PPP management, monitoring systems, and prospects for the introduction of digital technologies are also analyzed. The research develops practical recommendations aimed at improving PPP mechanisms in Uzbekistan and enhancing the effectiveness of infrastructure and social development projects.*
Key words: *public-private partnership, investment, infrastructure projects, risk sharing, concession, monitoring, financing, digital platform.*

Kirish

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni tubdan yangilash jarayonlarida davlat-xususiy sheriklikning samarali usullarini joriy etish va ularni takomillashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, strategik ahamiyatga ega infratuzilma hamda ijtimoiy sohalarda davlat bilan xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida

namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, moliyaviy resurslarni jalb qilish, zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish va loyihalarning barqaror boshqaruvini ta’minlashda xalqaro tajribalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda ham DXSh munosabatlarini huquqiy jihatdan tartibga solish va ularni milliy amaliyotga keng joriy etish uchun 2019 yilda qabul qilingan “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun [1] yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur qonun DXShning huquqiy asoslarini belgilab, davlat va xususiy sektorning infratuzilmaviy hamkorligini kuchaytirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda loyihalarni samarali boshqarish uchun huquqiy va institutsional imkoniyatlar yaratib berdi. Shunday qilib, DXShning qonunchilikda mustahkamlanishi mamlakatda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda va strategik ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirishda muhim zamin yaratdi. Keyinchalik milliy amaliyotda qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasida transport, energetika, kommunal xizmatlar, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida DXSh asosida yirik loyihalarni amalga oshirish orqali iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish vazifalari belgilangan. Jumladan, 2026-yil holatiga ko‘ra energetika sohasidagi DXSh loyihalari umumiy loyiha qiymatining qariyb 90 foizini tashkil etib, ushbu tarmoqda xususiy investitsiyalarni jalb etish yuqori sur’atlarda davom etayotganini ko‘rsatmoqda.

Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini boshqarish jarayonida moliyaviy risklarni baholash, investitsion barqarorlikni ta’minlash va loyihalarning iqtisodiy samaradorligini prognoz qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda inflyatsiya darajasining o‘zgarishi, valyuta kurslaridagi tebranishlar hamda moliyalashtirish manbalarining cheklanganligi DXSh loyihalarining real daromadliligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, inflyatsiya darajasining 1 foizga oshishi infratuzilma loyihalarining real rentabelligini o‘rtacha 0,4-0,6 foizga kamaytirishi mumkin. Milliy amaliyotda amalga oshirilayotgan infratuzilmaviy va ijtimoiy loyihalar samaradorligini ta’minlashda xalqaro tajribalarni o‘rganilishi va milliy sharoitda qo‘llanilishi dolzarb vazifa sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh, Janubiy Koreya, Yaponiya, Turkiya kabi davlatlarda DXSh mexanizmlari orqali yirik loyihalarni moliyalashtirish va boshqarishning samarali modellari shakllangan. Ushbu tajribalar O‘zbekistonda ham loyihalarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash, xususiy investitsiyalarni jalb etish va davlat byudjetining yukini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun xalqaro amaliyotda to‘plangan ilg‘or tajribalardan samarali foydalanish, ularni milliy sharoitga moslashtirish, DXSh mexanizmini yanada takomillashtirish, investitsion muhit barqarorligini ta’minlash hamda loyihalar samaradorligini oshirish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Xalqaro va milliy ilmiy tadqiqotlarda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmini rivojlantirish masalasi infratuzilmaviy loyihalarni moliyalashtirish, investitsion faollikni oshirish, davlat xarajatlari samaradorligini ta’minlash hamda xususiy sektor resurslarini iqtisodiy rivojlanishga jalb etish bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etilmoqda. Ayniqsa, global iqtisodiy beqarorlik, davlat byudjeti

resurslarining cheklanganligi hamda infratuzilmaga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi sharoitida davlat-xususiy sheriklik amaliyoti iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi muhim institutsional instrument sifatida e’tirof etilmoqda.

Yescombe E.R. tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda davlat-xususiy sheriklik loyihalarining moliyaviy va institutsional asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, DXSh mexanizmining asosiy afzalligi davlat va xususiy sektor o‘rtasida risklarni optimal taqsimlash, infratuzilmaviy loyihalarni tezroq amalga oshirish hamda investitsion resurslardan samarali foydalanishni ta’minlashdan iborat. Muallif DXSh loyihalarining muvaffaqiyati risklarni boshqarish va uzoq muddatli moliyalashtirish mexanizmlarining samaradorligiga bog‘liq ekanligini asoslab bergan [2]. Roumboutsos A. va Pantelias A. tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida davlat-xususiy sheriklik loyihalarining institutsional rivojlanish tendensiyalari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, transport, energetika va ijtimoiy infratuzilma sohalarida DXSh loyihalaridan foydalanish davlat investitsiyalarining samaradorligini oshirish hamda xususiy sektor innovatsion salohiyatidan keng foydalanish imkonini beradi. Mualliflar DXSh mexanizmini iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida baholagan [3]. Kopańska A. tomonidan olib borilgan tadqiqotda davlat-xususiy sheriklik loyihalarida xususiy sektor ishtirokini rag‘batlantiruvchi omillar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xususiy investorlarning DXSh loyihalarida faol ishtirok etishi davlat kafolatlari, institutsional barqarorlik, risklarni oqilona taqsimlash hamda loyiha rentabelligi bilan bevosita bog‘liqdir. Muallif davlat va xususiy sektor manfaatlarini muvozanatlashtirish hamda shaffof shartnomaviy mexanizmni shakllantirish DXSh loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim ahamiyat kasb etishini asoslab bergan [4]. Liu X. tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotda davlat-xususiy sheriklik loyihalarining innovatsion rivojlanishga ta’siri empirik jihatdan baholangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, DXSh xususiy investitsiyalarni jalb qilish, risklarni xususiy sektor bilan taqsimlash va integratsiyalashgan loyiha boshqaruvi tizimlarini qo‘llash innovatsion yechimlarni keng joriy etish imkonini beradi. Muallif DXSh loyihalari nafaqat infratuzilmaviy rivojlanish, balki innovatsion texnologiyalar transferi va davlat xizmatlari samaradorligini oshirishning muhim institutsional vositasi ekanligini ta’kidlagan [5].

Kuznetsovning tadqiqotlarida davlat-xususiy sheriklikning zamonaviy modellari jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan geoiqtisodiy transformatsiyalar va mintaqaviy integratsiya jarayonlari ta’sirida shakllanayotgani asoslab berilgan. Olimning fikricha, DXSh bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalarni o‘rganish va amaliyotga tatbiq etish investitsion faollikni oshirish, iqtisodiyotning strategik tarmoqlarini barqaror rivojlantirish hamda milliy iqtisodiyotning global investitsion jarayonlarga integratsiyalashuvini kuchaytirishga xizmat qiladi [6]. Yeremina va Rodina davlat-xususiy sheriklik cheklangan budjet resurslari sharoitida ijtimoiy infratuzilmani moliyalashtirishning samarali instrumenti sifatida baholaydi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, DXShdan foydalanish davlatning investitsion imkoniyatlarini kengaytirish, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish hamda ijtimoiy sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlash imkonini beradi [7].

Basova o‘z ilmiy izlanishlarida davlat-xususiy sheriklikning qishloq hududlari va agrar sektorni barqaror rivojlantirishdagi ahamiyatini keng yoritadi. Olimaning ta’kidlashicha, DXShning asosiy shakllari sifatida konsessiya bitimlari, investitsion kelishuvlar, infratuzilma loyihalari hamda qo‘shma moliyalashtirish mexanizmi namoyon bo‘ladi. Tadqiqotda DXSh loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun strategik rejalashtirish, risklarni taqsimlash, moliyaviy ta’minotni shakllantirish va loyiha natijalarini monitoring qilish bosqichlaridan izchil o‘tish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mazkur yondashuv DXSh loyihalarini boshqarish samaradorligini oshirish va ularning uzoq muddatli iqtisodiy natijadorligini ta’minlashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [8].

Prof. A.Vaxabov tomonidan milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiyalarni tutgan o‘rni va funksiyalariga doir qator tadqiqotlarni amalga oshirish bilan birga, DXSh orqali iqtisodiyot infratuzilmalarini rivojlantirishga bag‘ishlangan tadqiqotlar olib borgan. Investitsiyalar uzoq muddatli davrda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va aholi daromadlarini oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Investitsiyaga yo‘naltirilgan kapitalni jamg‘arish mehnat unumdorligining oshishiga xizmat qilishi barobarida uy xo‘jaliklari daromadlarining oshishini ham ta’minlaydi [9]. G.X.Utemuratova tomonidan xizmat ko‘rsatish sohasida DXSh rivojlanish yo‘nalishlari tadqiq etilgan, DXSh makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash aholi bandligini ta’minlashda muhim instrument ekanligi qayd etilgan, muallif fikricha “DXShning ijtimoiy ahamiyati shundaki, DXSh dasturlarini to‘liq amalga oshirishda pirovardida iste’molchi katta naf ko‘radi. Milliy iqtisodiyotdagi beqarorlik holatlarida DXSh makrodarajada, va alohida sub’ektlar darajasida avval boshlangan muhim ijtimoiy loyihalarni davlat tomonidan davom ettirish va yakunlash imkoniyatini vujudga keltiradi” [10].

Yuqorida keltirilgan xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlarini umumlashtirgan holda, bizningcha, davlat-xususiy sheriklik iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish, infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish hamda investitsion faollikni oshirishning kompleks institutsional mexanizmi hisoblanadi. DXShning samaradorligi uning afzalliklari, risklarni oqilona taqsimlash imkoniyati, institutsional barqarorlik, shaffof moliyalashtirish tizimi va manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik darajasiga bog‘liqdir. Shu bilan birga, DXSh loyihalarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi strategik rejalashtirish, moliyaviy ta’minot, monitoring va nazorat bosqichlarining izchil tashkil etilishini talab etadi. Mazkur yondashuv iqtisodiy o‘sish, investitsiyalar samaradorligi va ijtimoiy farovonlikni ta’minlashning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijalar


Xalqaro amaliyot tajribasi tahlillari ko‘rsatishicha, mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy barqaror rivojlanishini ta’minlashda, aholi turmush farovonligini oshirish, ijtimoiy infratuzilmalarni shakillantirish va mavjudlarini rekonstruksiya qilishda, DXSh muhim o‘rin tutadi. Ushbu holat DXShning ma’lum afzalliklarini amalga oshirish tufayli sodir bo‘ladi. Fikrimizcha DXSh quyidagi hususiyatlarga ega:

- DXSh ishtirokchilari davlat va xususiy biznes hisoblanadi;
- tomonlarning o‘zaro hamkorligi rasmiy, qonuniy asosida o‘rnatiladi;

- tomonlarning o‘zaro hamkorligi teng tavsifga ega;
- DXSh aniq ifodalangan bo‘lib ommaviy, ijtimoiy yo‘nalishga ega;
- DXShga asoslangan loyihalarni amalga oshirish jarayonida tomonlarning resurslari, ulushlari birlashtiriladi va konsolidatsiyalashadi;
- moliyaviy risklar va xarajatlar, erishilgan natijalar tomonlar o‘rtasida taqsimlanadi.

Iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish nuqtai nazaridan infratuzilma loyihalariga investitsiyalarni ko‘paytirish muhim rol o‘ynaydi, bu esa o‘z navbatida quyidagi omillarning o‘sishi va yaxshilanishini taqazo etadi (1-rasm).

Taxlillar ko‘rsatishicha iqtisodiy o‘sish omillari milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, davlat tomonidan DXSh bo‘yicha islohotlarning samarali tashkil etilganligiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. Iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirish bevosita infratuzilmaga investitsiyalar kiritish orqali amalga oshiriladi. Bularning ayrimlari hususida kengroq o‘tamiz. Qolganlari bo‘yicha esa ishimizning tegishli qisimlarida to‘htalib o‘tamiz. Birgina transport sohasini oladigan bo‘lsak, iqtisodiyotda samarali transport tizimining mavjud ekanligi tovar va xizmatlarni ta’minlab berish bilan bog‘liq vaqtlar va xarajatlarni kamaytirish orqali milliy iqtisodiyotda savdo munosabatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birgalikda transport tizimini rivojlanganligi milliy aksiyadorlik jamiyatlari raqobatbardoshligini oshirish bilan birga xalqaro savdo munosabatlar taraqitiga keng yo‘l ochadi.




1-rasm. DXSh asosida infratuzilma loyihalariga investitsiyalar jalb etish joylashtirish yo‘naltirish afzalliklari[1]

Ta’kidlash kerakki, keyingi yillarda mamlakatimizda transport sohasini isloh qilish, sohada DXSh mexanizmini rivojlantirish orqali tadbirkorlik muhitiga keng yo‘l ochib berish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 aprelda “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi PF-101-sonli Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonda transport tizimini rivojlantirish maqsadida “temir yo‘l orqali ichki va xalqaro yuk, yo‘lovchi tashishlarini davlat-xususiy sheriklik yoki franshiza asosida xususiy sektorga berish; 2022 yil 1 avgustga qadar xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda Toshkent shahar jamoat transporti tizimini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi doirasida jamoat transporti faoliyatiga xususiy sektorni, jumladan davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida loyihalarni amalga oshirishga jalb etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilib, Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta’minlash” [11] vazifalari alohida belgilab berilgan. Iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim sohalaridan biri shubhasiz energetika sohasi hisoblanadi. Jumladan, oxirgi o‘n yillikda ushbu soha mamlakatimizda ko‘p muzokalar olib borilayotgan, aholi va ilmiy jamoatchilik o‘rtasida muhokama qilinayotgan sohalardan biriga aylandi. Energetika ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai

[1] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

nazardan dolzarb ahamiyatga ega tarmoq sanaladi. Umuman savdo, xizmat ko‘rsatish, oziq ovqat va sanoatni rivojlantirishning asoslaridan biri mustahkam energetika infratuzilmasi hisoblanadi. DXSh loyihalarini amalga oshirish aniq tamoyillarga tayanadi va ular mantiqiy ketma-ketlikda amalga oshirilish kerak Fikrimizcha, DXSh quyidagi tamoyillarga asoslanish maqsadga muvofiq (2-rasm).



2-rasm. Davlat-xususiy sheriklikning tamoyillari[2]

Bozor munosabatlari sharoitida yuqorida keltirilgan tamoyillarning o‘zaro manfaatli ravishda tashkil yetilishi davlat va xususiy investorlar uchun muhim hisoblanadi. DXSh munosabatlarini tashkil etishda har ikkila tomonlar o‘zaro manfaatlarini, faoliyat yo‘nalishlari, maqsadlarini hurmat qilgan holda yondashishlari kerak bo‘ladi. Aks holda tomonlar o‘rtasida tuzilgan DXSh bo‘yicha investitsion loyihalarning istiqboli shubha ostida qolishi mumkin. DXSh infratuzilmasi loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun loyiha maqsadlariga erishish va uning samaradorligini ta’minlashning iqtisodiy usullari va vositalari tizimini, tashkiliy va boshqaruv tuzilmalarini qamrab olgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm shakllantirish lozim. DXShning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi davlat, biznes va jamiyatning strategik manfaatlarini muvofiqlashtirish va maqsadlarni aniq belgilash, loyihalarni amalga oshirish tartib-taomillarining shaffofligini qonunchilikda mustahkamlanishini ta’minlash, loyiha va ularning ishtirokchilarini alohida maqomini belgilash imkonini beradi (3-rasm).

[2] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Biznes sohasida mazkur mexanizm instrumentlari davlat tomonidan taqdim yetilgan tadbirkorlik faoliyati keng imkoniyatlar yaratadi, jumladan birinchi navbatda jamiyatning manfaatlarini himoya qilgan holda davlat va biznesning manfaatlarini e'tiborga oladi sheriklik manfaatlarini himoya qiladi va barqaror rivojlanishni ta'minlaydi. DXShning tashkiliy-iqtisodiy faoliyat mexanizmi bevosita tashqi va ichki muhit omillarining kombinatsiyasi ko'rinishida amalga oshiriladi. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishini sekinlashuvi geoiqtisodiy sohasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, geosiyosiy muammolar davlatlar tomonidan infratuzilmaviy loyihalarni milliy iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo yetmoqda.

DXSh tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta'sir etuvchi ichki omillariga quyidagilar kiradi: DXSh loyihasining maqsadi va ob'ekti; DXSh loyihasini amalga oshirish natijasida ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga qo'yiladigan talablar; maxsus loyihalashtirish kompaniyasi (SPV) aksiyadorlarining tarkibi va ularning manfaatlari; DXSh loyihasi uchun zarur bo'lgan investitsiyalar hajmi; DXSh loyihasini moliyalashtirish manbalarining tarkibi va moliyalashtirish shakllari; individual loyiha ishlarini o'z vaqtida rejalashtirish; loyiha ishtirokchilari o'rtasida daromad va xarajatlarni taqsimlash; ish (xizmat) bajaruvchilar o'rtasida ish hajmlari va resurslarni taqsimlash; loyihani amalga oshirishning barcha bosqichlarida risklarni sug'urtalash. DXSh loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda, tashqi va ichki omillar muhim ahamiyatga ega bo'lib, davlat va xususiy sektor manfaatlarining uyg'unligini ta'minlashga qaratilishi kerak.

3-rasm ma'lumotlari ko'rsatishicha, DXShning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi ko'p bosqichli bo'lib, tashqi va ichki, tartibga solinadigan va tartibga solinmaydigan omillar ta'sirida shakllanadi, uning ishtirokchilari manfaatlarini muvofiqlashtirishni ta'minlaydi. DXShning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish va optimallashtirish davlat va xususiy biznes uchun murakkab vazifalardan biri bo'lib, loyihani aniqlashdan boshlab to loyihani boshqarish bosqichi va ekspluatatsiya qilish muddatini o'z ichiga olgan algoritmni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

<table>
<tr><td colspan="6">Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi sheriklik munosabatlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining darajalari va tarkibiy qismlari</td></tr>
<tr><td rowspan="6">Tashkiliy komponentlar</td><td colspan="4">Makro darajada</td><td rowspan="6">Iqtisodiy komponentlar</td></tr>
<tr><td>DXSh uchun amaldagi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy asosi</td><td>DXSh ni nazorat qiluvchi organlar</td><td colspan="2">Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omillari (investitsion faollik, bandlik va inflyatsiya darajasi, YaIMni o‘sish sur’ati, soliq yuki darajasi, aholining to‘lov qobiliyati darajasi, iqtisodiy rivojlanish indikatorlarining holati)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Tarmoq darajasida</td><td colspan="2">Tarmoq darajasida</td></tr>
<tr><td>Tarmoqlar bo‘yicha DXShning amaldagi qonunchilik va me'yoriy-huquqiy baza</td><td>Tarmoqlardagi vakolatli organlar</td><td>Iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishining omillari</td><td>Loyihani amalga oshirish omillari (texnik-iqtisodiy asoslash, moddiy, moliyaviy va inson resurslarining mavjudligi, tarif siyosati, hamkorlar o‘rtasida risk taqsimoti)</td></tr>
<tr><td colspan="2">DXSh moliyaviy va tashkiliy vositalari:
- tijorat banklari va investitsion fond;
- sanoat klasterlari;
- erkin iqtisodiy zonalar.</td><td colspan="2">DXSh modellari:
- yangi obyektni qurish (yaratish) «greenfield»;
- mavjud obyektlari modernizatsiya qilish «brownfield»;
- obyektlarni ekspluatatsiya qilish.</td></tr>
<tr><td>DXSh obyektlari:
- ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma;
- sanoat korxonalari;
- ilmiy tadqiqot va innovatsiyalar</td><td>DXSh shakllari:
- boshqarish, xizmatlar ko‘rsatishga doir shartnoma;
- aksiyadorlik, qo‘shma shakldagi korxona;
- konsessiya</td><td>DXSh subyektlari:
- davlat;
- xususiy investorlar;
- aholi (fuqarolar).</td><td>DXSh bo‘yicha faoliyat samaradorligini baholash va nazorat qilish mexanizmi</td></tr>
</table>

3-rasm. DXShning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi va uning elementlari[3]

[3] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

DXSh loyihalarini amalga oshirishda davlatlaring iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, xalqaro reytinglardagi o‘rni va nufuzi, investor huquqlarini himoya qilishning tartib qoidalari, kapital bozorini rivojlanganlik darajasi kabi omillar muhim o‘rin tutadi. Har bir davlatning DXSh loyihalarini amalga oshirishning qonunchilik asoslari ishlab chiqilgan bo‘lib, davlat va uniing sherigi yoki investor va ikkinchi tomon o‘rtasidagi huquqiy-iqtisodiy munosabatlar ushbu qonunchilik hujjatlari asosida tartibga solinadi va boshqariladi. DXSh loyihalari muvaffaqiyatini belgilovchi omillardan biri, mukammal nazorat va monitoring mexanizmini mavjud yekanligi hisoblanadi. Nazorat mexanizmini oshirilishi jarayonida DXSh loyihalari bo‘yicha davlatning nufuziga ta’sir qilishi mumkin, va ushbu mexanizmni tashkil etishda davlat va uning sherigi iqtisodiy-huquqiy manfaatlari hisobga olinishi kerak. Davlat sherigi va vakolatli davlat organi reestrga olingan DXSh loyihalari bajarilishi va DXSh to‘g‘risidagi bitim shartlariga rioya etilishi ustidan monitoring yuritadi. Vakolatli davlat organi tomonidan belgilangan tartibda reestrga olinmagan DXSh loyihalari bo‘yicha monitoring yuritilmaydi. Davlat sherigi va vakolatli davlat organining zaruratga ko‘ra, joylarda DXSh loyihalari amalga oshirilishi yuzasidan monitoring yuritilishi uchun DXSh obyektlariga kirishi va tegishli hujjatlardan foydalanishi ta’minlanadi.

Monitoring quyidagi maqsadlarda yuritiladi:

- loyihani o‘z vaqtida va samarali amalga oshirishni ta’minlash;
- DXSh loyihasining moliyaviy-iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlari bajarilishini o‘rganish;
- DXSh to‘g‘risidagi bitimga muvofiq tasdiqlangan tariflarga (narxlarga) amal qilinishini o‘rganish;
- davlat va xususiy sheriklarning faoliyatini muvofiqlashtirish, loyihani amalga oshirish bilan bog‘liq masalalar o‘z vaqtida hal yetilishi uchun ularning javobgarligini oshirish;
- loyihani amalga oshirishning barcha bosqichlarida to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va o‘rganish, ularni hal etish bo‘yicha tezkor choralar ko‘rish;
- tasdiqlangan muddatlar va hajmlarga qat’iy muvofiq ravishda loyihalarni o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlash ustidan nazorat o‘rnatish;
- davlat va xususiy sheriklarni loyihalar bo‘yicha olingan majburiyatlar bajarilishini ta’minlash.

Fikrimizcha, DXSh loyihalari bo‘yicha nazorat va amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish va DXSh loyihalarini amaliyotga joriy yetish bo‘yicha xarajatlarni kamaytirish maqsadida DXSh bo‘yicha yagona milliy platformani yaratish va amaliyotga tadbiq etish kerak. Shuningdek, mamlakatimizda DXSh bo‘yicha xalqaro raqamli ekotizimni keng targ‘ib qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Milliy platforma ekotizimning muhim element sifatida loyihani ishlab chiqish va investorlar izlab topishni qo‘llab-quvvatlash lozim, DXSh loyihalarini ularning barcha bosqichlarida amalga oshirishga ko‘maklashishi kerak. Ushbu masalaning dolzarbligi mamlakat ichki iqtisodiy barqarorligini ta’minlash va halqaro hamjamiyatda davlatning investitsion shaffofligini belgilashda muhim o‘rin tutadi. Shu bilan birga DXSh loyihalarini monitoringini tashkil etish va amalga oshirishda raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng

foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu jarayon subyektlar ishtirokini kamaytirish va DXSh loyihalarni amalga oshirishdagi xarajatlarni minimallashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Xulosa va takliflar

Davlat-xususiy sheriklik iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida investitsion faollikni oshirish, infratuzilmaviy obyektlarni rivojlantirish hamda davlat budjeti yukini kamaytirishning samarali institutsional mexanizmi hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, DXSh davlat va xususiy sektor manfaatlarini uyg‘unlashtirish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda risklarni oqilona taqsimlash imkonini beradi. Shu bilan birga, DXSh loyihalari transport, energetika, sog‘liqni saqlash va ta’lim kabi ustuvor sohalarda xizmatlar sifati va infratuzilma samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur jihatlar DXShni iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta’minlovchi muhim vosita sifatida namoyon etadi.

Loyihalarning muvaffaqiyati institutsional barqarorlik, huquqiy kafolatlar, shaffof moliyalashtirish tizimi, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlik va monitoring mexanizmining samaradorligiga bevosita bog‘liqdir. DXSh loyihalarini strategik rejalashtirish, moliyalashtirish, amalga oshirish va nazorat qilish bosqichlarining izchil tashkil etilishi investitsion risklarni kamaytirish hamda loyiha natijadorligini oshirish imkonini beradi. Shuning uchun DXShni rivojlantirishda institutsional va tashkiliy omillarga alohida e’tibor qaratish zarur.

Xalqaro amaliyot tahlili shuni ko‘rsatdiki, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, AQSh, Yaponiya va Janubiy Koreyada DXSh loyihalarini amalga oshirishda risklarni taqsimlash, shaffof tender tizimi, loyiha monitoringi va uzoq muddatli moliyalashtirish amaliyotidan samarali foydalaniladi. Ushbu tajribalarni O‘zbekiston amaliyotiga moslashtirish orqali infratuzilmaviy loyihalarning investitsion jozibadorligini oshirish, xususiy investorlar ishonchini mustahkamlash va davlat mablag‘laridan foydalanish samaradorligini yanada oshirish mumkin. Ayniqsa, loyihalarni baholash va monitoring qilishning yagona standartlarini joriy etish DXSh loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Rivojlangan davlatlar tajribasida DXSh loyihalarini boshqarishda raqamli texnologiyalar, elektron platformalar va sun’iy intellekt asosidagi monitoring tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Mazkur yondashuvlar loyihalarning shaffofligini ta’minlash, korrupsion xavflarni kamaytirish hamda boshqaruv xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi. O‘zbekiston sharoitida DXSh bo‘yicha yagona milliy raqamli platformani yaratish, investorlar va davlat organlari o‘rtasidagi axborot almashinuvini raqamlashtirish hamda loyiha monitoringini avtomatlashtirish xalqaro tajribadan foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonun O‘RQ-537-son.

2. Yescombe E.R. Public-Private Partnerships and Infrastructure Investment: Global Trends and Challenges // Journal of Infrastructure Policy and Development. – 2021. – Vol. 5, No. 2. – Pp. 45–62.
3. Roumboutsos A., Pantelias A. Public-Private Partnerships in Europe: Institutional Development and Investment Efficiency // Built Environment Project and Asset Management. – 2022. – Vol. 12, No. 4. – Pp. 567–583.
4. Kopańska A. Private Entities Motivations to Participate in Public-Private Partnerships // Socio-Economic Planning Sciences. – 2024. – Vol. 92.
5. Liu X. The Effect of Public–Private Partnerships on Innovation in Government Projects // Public Works Management & Policy. – 2024. – Vol. 29, No. 2. – Pp. 145–163.
6. Кузнецов А.В. Трансформация мировой экономики и новые тенденции международного экономического сотрудничества // Институт мировой экономики и международных отношений. - 2023.
7. Еремина О.И., Родина Е.Е. Государственно-частное партнерство как инструмент финансирования социальной сферы в России // Вестник Алтайской академии экономики и права. - 2024. - №9.
8. Басова С.А. Государственно-частное партнерство в основе обеспечения устойчивого развития сельских территорий // Human Progress. - 2024. - Том 10. - Выпуск 11.
9. Vaxabov A.V., Xajibakiyev Sh.X., Vosiqov A.R. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi sharoitida O‘zbekiston investitsion mavqeini yaxshilash muammolari//“Yangi O‘zbekiston iqtisodiyoti” jurnali 4-son 2024 yil.
10. Utemuratova G.X. Iqtisodiyotning transformatsiyalashishi sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasida davlat-xususiy sherikchiligi rivojlanishiga metodologik yondashuv//Iqtisod va moliya 2022, 1(149).
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 aprelda “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o‘sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to‘g‘risida”gi PF-101-sonli Farmoni